

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 7 Jild 4
2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 7 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Abduxamidov Islombek</i> O'ZBEKISTON AHOLISINING ROSSIYA FEDERATSIYASIDA MEHNAT MUHOJIRLIGI TARIXI	10-18
<i>Фарманова Гульнара Комилевна</i> ПОДНЯТИЕ МЕТОДИКИ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ОБЩЕМИРОВОЙ УРОВЕНЬ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ	19-24
<i>Индиаминова Шоира Амриддиновна</i> РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА В САМАРКАНДСКОМ СОГДЕ В ЭПОХУ РАННЕГО СРЕДНЕВЕКОВЬЯ	25-29
<i>Mirzakhmdamova Dildora Zafarovna</i> XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASHDA FARG'ONA VILOYATIDA IPAKCHILK ORQALI KASANACHILIK VA UY MEHNATINI RIVOJLANTIRISH	30-35
<i>Ismoilova Parvina</i> TURKISTON MINTAQASIDAGI INSTITUTSIONAL O'ZGARISHLAR: ROSSIYA KAPITALI UCHUN KANALLARNING SHAKLLANISHI (19-ASR OXIRI - 20-ASR BOSHLARI)	36-41
<i>Jomurodov Lazizbek Islomovich</i> O'ZBEKISTONDA TERI-TANOSIL KASALLIKLARIGA QARSHI KURASH JARAYONI	42-46

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Назарова Раъно Рустамовна, Нигматуллаева Гульчехра Нуруллаевна</i> ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ, КРИТЕРИИ И ПОКАЗАТЕЛИ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ В СФЕРЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ	47-54
<i>Yegamberdiyeva Xurshidaxon Alisherovna</i> VAGONLARDAN FOYDALANISHNING SIFAT KO'RSATKICHINI OSHIRISHNI TADQIQ QILISH	55-61
<i>Mamadaliyev Ulug'bek</i> JAHON TURIZMIDA TUROPERATORLIK FAOLIYATINING RIVOJLANISH HOLATI	62-69
<i>Jalilov Arslon Xoshimovich</i> TEMIR YO'L TRANSPORTINING INNOVASION MUHITDAGI RAQOBATDOSHLIK DARAJASINI BAHOLASH	70-75
<i>Kamchibekov Farxod Olimjonovich</i> O'ZBEKISTON HUDUDLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MAXSUS IQTISODIY HUDUDLAR VA KICHIK SANOAT ZONALARINING ROLI	76-82

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Djurayev Lukmon Narzullaevich</i> ZAMONAVIY O'ZBEKISTON JAMIYATIDA YOSHLAR IQTISODIY MADANIYATINING TRANSFORMATSIYALASHUVI	83-87
---	-------

Norkulov Ubaydulla Umarovich

MAHALLADA JINOYATLARNI ERTA ANIQLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINI

KUCHAYTIRISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY MEKANIZMLARI 88-92

Пулатов Шердор Нематёнович

ДОКТРИНА ЛЮБВИ АЛИШЕРА НАВАИ И МАХАТМЫ ГАНДИ 93-105

Yusupov Murodali Sunnatovich

O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION TIZIMLARNI QO'LLASHNING IJTIMOIIY-

FALSAFIY MASALALARI 106-110

Suleymanov Sarvar Sunatullayevich

O'ZBEKISTONNING YANGI DAVRGA XOS BO'LGAN MA'NAVIY TEXNOLOGIYALARNING

IJTIMOIIY-FALSAFIY ASOSLARI 111-116

Shernazarov Ravshan Avazovich

SIYOSIY E'TIQOD: UNING TIZIMI VA FUNKSIYASINING FALSAFIY TAHLILI 117-122

Nasrullayev Ravshanxon Sirojxonovich

VATANPARVARLIKNI IJTIMOIIY- MADANIY HODISA SIFATIDA AHAMIYATI 123-126

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Matkarimova Salomat Ko'ziyevna

ALISHER NAVOIY VA HAYDAR XORAZMIY: MUSHTARAKLIK VA O'ZIGA XOSLIK 127-133

Tairova Maxfuza Abdusattorovna

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MAMLUKATSHUNOSLIKKA DOIR RAMZIY VOSITALARNING

TARJIMADA QAYTA IFODALANISHI 134-139

Rahimova Maftuna

LISONIY BELGI VA ASSOTSIATSIYA 140-143

Umaraliyeva Dildora Taxirjanovna

O'ZBEK LATIFALARI, ULARNING TASNIFI VA TO'PLASH BORASIDA OLIB BORILGAN

TADQIQOTLAR 144-147

Xursanov Nurislom Iskandarovich

O'ZBEK FRAZELOGIK BIRLIKLARINING PRAGMATIK TAHLILI 148-154

Umarov Umidjon Akram o'g'li

RAMZ AXRETIPLARINING TASNIFLANISHI VA BADIY TAHLILI 155-159

Облокулова Шахло Асрор қизи

ЗАМОНАВИЙ ЖАҲОН АДАБИЁТИДА ТАОМ ДИСКУРСИ 160-164

Nazarova Lola Maqsadilla qizi

KORPUS LINGVISTIKASI: BNC KORPUSINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI 165-170

Umarxonova Dilafruz Murotjonovna

"MARDLIK" VA "QO'RQOQLIK" KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI 171-175

Yunusova Ganjina Rustamovna

NAZMDA YO'L XRONOTOPINING BADIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI 176-180

Мусаев Файзулло Оманович

АРАБ ДУНЁСИДА "МАСАЛ" ИЛМИНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА РИВОЖИ 181-186

<i>Ubaydullayeva Dilafruz Fazliddinova</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI "ANGER" VA "G'AZAB" ATAMALARINING ETIMOLOGIK VA LESIKOGRAFIK TAHLILI	187-192
<i>Narmuratov Zayniddin Radjabovich</i> FRAZEOLIK BIRLIKLAR KOMPONENTLARI TAHLILI VA ULARNING STRUKTURAVIY MODELLARI	193-196
<i>Masharipova Nargiza Otaxonovna</i> TARIXIY-BADIIY ASARLAR TARJIMASIDA DINIY VA TARIXIY SO'ZLAR TARJIMASI MUAMMOSI	197-201
<i>Икромов Нугина Ойбековна</i> ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ТРУДНОСТИ ПЕРЕВОДА ЗАГЛАВИЯ ЛИТЕРАТУРНОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ	202-207
<i>Najmiddinova Mehriqul Najmiddin qizi</i> NEGATIVLIKNI IFODALOVCHI TEXNIKAGA OID TERMINLARNING QIYOSIY TADQIQI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	208-213
<i>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</i> "NAZMUL JAVOHIR" ASARIDA G'OYAVIY BADIIY POETIKA	214-221
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Саидов Акроб Акмалович</i> ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ЖАЗОНИ ИЖРО ЭТИШ СИЁСАТИ ҲАМДА УНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	222-230
<i>Raimova Nargiza Doroyevna</i> TIJORAT MAXFIY MA'LUMOTLARINI HIMOYA QILISH: INTELLEKTUAL MULK HUQUQI SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	231-237
<i>Умурзаков Жасурбек Қосимжанович</i> КРИПТО-АКТИВЛАР НОҚОНУНИЙ АЙЛАНМАСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР УЧУН ЖАВОБГАРЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	238-242
<i>Nurmatova Noila Doniyorovna</i> KONSTITUTSIYAVIY SUDLOV ORGANI TOMONIDAN FUQAROLAR VA YURIDIK SHAXSLARNING SHIKOYATINI KO'RIB CHIQISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	243-248
<i>Muxammadjonov Jasurbek Jaxongir o'g'li</i> FUQAROLARNING TADBIRKORLIK BILAN SHUG'ULLANISH HUQUQINING XALQARO VA MINTAQAVIY HUQUQIY KAFOLATLARI	249-260
<i>Адилбаев Бекбосын Абатбаевич</i> ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ВАКИЛЛИК ТУШУНЧАСИ, МОҲИЯТИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	261-267
<i>Турсунбоев Сардор Муроджон ўғли</i> ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИДА ТЕРГОВ ТУЗИЛМАЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	268-275
<i>Mukumov Bobur</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASIDA TOVAR BELGILARINI HUQUQIY MUHOFAZA QILISH MASALALARI	276-282
<i>Nabiev Firuz Xamidovich</i> INTELLEKTUAL MULK SOHASIDAGI XALQARO HUQUQIY NORMLARNI O'ZBEKISTON	

RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIGA IMPLEMENTATSIYA QILISHDA “MOSLASHUVCHANLIK” KONTSEPTSIYASINING O'RNI	283-289
---	---------

Калимбетов Ерназар

ГРАЖДАНСКИЕ ПРАВА В СФЕРЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ПОНЯТИЕ, ВИДЫ И СОДЕРЖАНИЕ В КОНТЕКСТЕ АДМИНИСТРАТИВНО-ПРАВОВОЙ ЗАЩИТЫ	290-297
--	---------

Ibrohimov Azimjon Abdumot'min o'g'li

KORPORATSIYANI AMALDA BOSHQARUVCHI SHAXSLAR JAVOBGARLIGI	298-306
--	---------

Ходжаева Ширин

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ РИСКОВ, СВЯЗАННЫХ С ПРЕДДОГОВОРНЫМИ ОТНОШЕНИЯМИ	307-317
--	---------

Маматкулов Камолiddин Галабаевич

ТАҚИҚЛАНГАН ЭКИНЛАРНИ ЕТИШТИРИШ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШДА ИСБОТЛАНУВЧИ ҲОЛАТЛАР ВА УЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ	318-323
---	---------

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Nazarova Ra'no Sidiq qizi

HUQUQBUZARLIKKA MOYIL BO'LGAN BOLALARDA O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	324-329
---	---------

Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QITUVCHISI KASB STANDARTINING MAZMUN TAHLILI	330-341
--	---------

Hamidova Laylo Kamildjonovna

OLIY PEDAGOGIK TA'LIMDA ARALASH O'QITISH MODELLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	342-346
---	---------

Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna, Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich

MAKTABDA KIMYOVIY MASALALARNI ECHISH BO'YICHA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH SHAKILLARI	347-357
---	---------

Rasulova Dilafruzxon Sharobiddin qizi

GLOBAL PEDAGOGIK SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR KOMPETENSIYASIGA METODIK YONDASHUVLAR	358-363
--	---------

Kenjaboyev Sharifjon Shuxrat o'g'li

INDIVIDUAL-KABIY RIVOJLANISH – PEDAGOGIK KASBI TARBIYASINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA	364-369
---	---------

Jalilov Umidjon Jahongirovich

OG'IR ATLETIKA MASHQLARINING AMALGA OSHIRISH USLUBIYATI	370-375
---	---------

Najmiddinova Gulnora Najmiddin qizi

OLIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI	376-381
--	---------

Received: 30 June 2024

Accepted: 5 July 2024

Published: 15 July 2024

Article / Original Paper

CORPUS LINGUISTICS: FUNCTIONAL CHARACTERISTICS OF THE BNC CORPUS

Nazarova Lola Maqsadilla kizi

Master's student of Termiz University of Economics and Service

E-mail: nazarova.lola@mail.ru

Abstract. Since languages are an important factor in enriching the spiritual heritage of nations, preserving them means contributing to the development of national spirituality. The main solution to prevent the disappearance of languages in the current computerized age is the digitization of languages and the creation of a linguistic corpus based on this. Also, the field of corpus linguistics is of great importance for the thorough study and linguistic analysis of other languages, including English. This article provides information on corpus linguistics, inter-corpus studies, and the BNC corpus.

Keywords: Corpus linguistics, linguistic corpora, BNC, COCA, electronic library, electronic database, corpus methodology.

KORPUS LINGVISTIKASI: BNC KORPUSINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Nazarova Lola Maqsadilla qizi

Termiz Iqtisodiyot va Servis universiteti magistranti

Annotatsiya. Tillar xalqlarning ma'naviy merosini boyitishning muhim omili ekan, ularni asrab-avaylash milliy ma'naviyat rivojiga hissa qo'shish demakdir. Hozirgi kompyuterlashgan asrda tillarning yo'qolib ketishining oldini olishning asosiy yechimi tillarni raqamlashtirish va shu asosda lingvistik korpusni yaratishdir. Shuningdek, korpus tilshunosligi sohasi boshqa tillarni, jumladan, ingliz tilini mukammal o'rganish va lingvistik tahlil qilish uchun katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada korpus lingvistikasi, korpuslar aro tadqiqotlar va BNC korpusiga doir malumotlar keltirib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Korpus lingvistikasi, lisoniy korpuslar, BNC, COCA, elektron kutubxona, elektron baza, korpus metodologiyasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I7Y2024N26>

Kirish. Korpus bu til birliklarining xususiyatlarini aniqlash maqsadida qidiruv dasturiga birlashtirilgan katta hajmga ega bo'lgan va tizimlashtirilgan matnlarning elektron bazasidir. Korpus lingvistikasi esa komputer tilshunosligining tarkibiy qismiga kiruvchi tilshunoslik bo'limi bo'lib, u ma'lum til birliklarining barcha ko'rinishlarini, belgilangan so'z bilan birikish imkoniyatiga ega so'zlar ro'yxatini, shuningdek, til foydalanuvchilarining tildagi so'zlardan foydalanish statistikasini aniqlaydi va tahlil qiladi. Korpuslar asosan lingvistik tadqiqotlar olib borish uchun tuziladigan jonli til bazasi hisoblanadi, sababi, korpus ma'lum tildagi turli badiiy asarlar, publikatsiyalar, gazeta-jurnallar va hattoki audio tarzidagi ma'lumotlardan yig'ilgan matnlar bazasi hisoblanadi. [1] Korpus lingvistikasi tarixi 1950-yillar boshlarida boshlangan.

Bu davrda, kompyuter texnologiyalari rivojlanib, matnlar avtomatik ravishda saqlanishi va qidirish imkoniyatlari paydo bo'ldi. Bu avtomatizatsiya til va nutq madaniyati sohasidagi tadqiqotlarni osonlashtirdi va kengaytirdi. Korpus lingvistikasi asosan Britaniyada rivojlandi, va ilk korpuslar ingliz tiliga oid edi. Bu korpuslar matnlar to'plamlarini o'z ichiga oladi va ularni avtomatik ravishda analiz qilishga imkon beradi. Bu esa tilning strukturasi, so'zlarining ulushi, ma'nosi va boshqa xususiyatlari haqida tushuncha beradi. Tilshunos olimlarning fikrlariga ko'ra, korpuslar barcha darajadagi til foydalanuvchilari uchun qulay bazadir. Chunki kichik matnlar yordamida har qanday tilni "pastdan yuqoriga" o'rganish usuli mavjud bo'lib, til o'rganishni boshlovchilar uchun qiyinchilik tug'dirmaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Korpus lingvistikasining paydo bo'lishi va taraqqiyoti haqida birinchilardan bo'lib ilmiy izlanish olib borgan tilshunos bu G. Lichdir. S.Xyuston, D.Biber, C.Grays, M.Xalliday esa zamonaviy korpus lingvistikasi va uning shakllanishiga oid tadqiqotlar olib borishdi. Tojikistonlik olim D. Jafarova esa korpus lingvistikasini komputer lingvistikasi va boshqa o'zaro o'xshash sohalar bilan qiyoslab o'rgandi. O'zbekistonda ham bugungi kunda korpora, unga doir metodlar va ularni amaliyotda foydalanishga doir bir qator ishlar olib borilmoqda. Jumladan, J.Jumaboyev ingliz tili korpuslari, xususan, BNC korpusining semantik gradatsiyalarini topishga doir tadqiqotlar olib borgan bo'lsa, G.Ergasheva BNC korpusi asosida genderga oid konseptual metaforalarni tadqiq qildi, G.Sobirova esa BNC korpusini tillarni o'qitishda qo'llashga e'tibor qaratdi. Korpora, ko'p ma'lumotlardan iborat bo'lgan yozuvlar, matnlar yoki boshqa ma'lumotlar to'plami. Korpora odatda biror tilda yozilgan matnlar, so'zlar, gaplar yoki boshqa ma'lumotlar bo'lishi mumkin. Korpuslar tilning strukturasi, o'zgarishlari va foydalanuvchilari uchun ko'rsatkichlari haqida statistik ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Lingvistika bo'yicha korpuslar, tilning foydalanuvchi o'rtasidagi munosabatlarni, so'zlar, so'z birikmalarini, sintaksisini va boshqa xususiyatlarni tahlil qilishda keng qo'llaniladi. Bu ma'lumotlar tilning grammatik xususiyatlari, so'zlarining ulushi va ma'nosi, turli dialektlari, tarixiy rivojlanishi va boshqa tushunchalarni tahlil qilishda foydalaniladi. Korpus lingvistikasi yordamida tilning strukturasi va o'zgarishlari statistik ma'lumotlar yordamida tahlil qilinishi mumkin. Ushbu ma'lumotlar til va madaniyat munosabatlari, kommunikatsiya jarayonlari va turli jamiyatlar o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishda ham foydalaniladi. Bundan tashqari, korpus lingvistikasi yordamida tilning statistik ma'lumotlari tarjima mashinasi rivojlanishida ham keng qo'llaniladi. Tilning strukturasi va o'zgarishlari statistik ma'lumotlar orqali avtomatik tarjima tizimlari tilni tahlil qiladi va tarjima qilishda ishlatiladi.

Korpus lingvistikasi sohasida ko'plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Bu izlanishlar til va nutq madaniyati sohasidagi turli masalalarni o'z ichiga oladi, masalan:

1. Tilning strukturasi:
2. So'z birikmalarining tahlili
3. Til o'zgarishlari: [3]

Bu kabi izlanishlar korpus lingvistikasi sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni kengaytirib, til va nutq madaniyati sohasidagi ko'plab muhim masalalarni o'z ichiga oladi. Ingliz tili juda boy til, shu sababli ingliz tilining o'zida bir nechta korpuslar mavjud. Jumladan COCA va BNC korpuslari buning yorqin namunalari. Ushbu 2 korpus ingliz tilidagi eng katta korpuslardir.

Britaniya Milliy Korpusi (BNC) turli manbalardan olingan yozma va og'zaki ingliz tili namunalaridan iborat 100 million so'zli matn korpusidir. [4] Korpus XX asr oxiridan boshlab

to'plangan, turli janrdagi matnlarni o'z ichiga olgan milliy til manbasidir. Bu o'sha davrdan boshlangan ingliz tilining og'zaki va yozma namunasidir. BNC korpusini yaratish loyihasi uchta noshir (Oxford University Press bosh hamkori Longman va W. & R. Chambers bilan), ikkita universitet (Oksford universiteti va Lankaster universiteti) va Britaniya kutubxonasining hamkorligini o'z ichiga olgan. Jarayon 1991-yilda boshlanganva 1994-yilga kelib yakunlangan. 2001-yil ikkinchi va 2007-yilda uchinchi nashri chiqarilgan. BNCning 10% i og'zaki tildagi orfografik transkripsiya shaklida taqdim etiladigan va yozib olinadigan matnlar namunalaridir.

Korpusga asoslangan tadqiqotlar, tilshunoslikning boshqa kichik sohalarida bo'lgani kabi, kompyuter tilshunosligida ham juda dinamik tushunchadir. Ushbu dinamizm kompyuterlashtirilgan korpuslarning o'sishini taminlaydi, shuningdek, elektron korpuslarga onlayn kirish imkoniyatlariga ega platformalar yaratadi. Yaqin kelajakda korpus lingvistikasini ijtimoiy va siyosiy muammolarni hal qiladigan kuchga ega mustaqil fan sifatida rivojlanishi kutilmoqda.

Korpusdan foydalanish jarayonida korpusning hajmi va undagi ma'lumotlar kun sayin oshgani sababli, korpus foydalanuvchilari korpusda qayd etilgan ma'lumotlardan doimiy xabardor bo'lishlari muhimdir. Izohlarning uzluksiz ko'payishi foydalanuvchilarning korpusdagi izohlarni to'liq tushuna olmasligiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, u o'qituvchilar va talabalar uchun korpusning pedagogik ahamiyatiga ta'sir qiladi. Ko'rib turganimizdek, izlanish muammosi ham o'rganish muammosidir. Korporani samarali tahlil qilish va o'rganish uchun tadqiqotchilar matnni qayta ishlash va tahlil qilishni osonlashtiradigan turli xil dasturlardan foydalanadilar. Quyida ularning ba'zilar keltirilgan.

Konkordens dasturlar tadqiqotchilarga korpus ichida muayyan so'z yoki iboralarni izlash va ularning bevosita kontekstini ko'rsatish imkonini beradi, bu esa birikmalarni, semantik yoki sintaktik birliklarni aniqlashga yordam beradi. Mashhur konkordanserlarga AntConc, WordSmith Tools va Sketch Engine kiradi.

Korpora onlayn dasturi turli tillardagi bir nechta oldindan tuzilgan korpuslarga onlayn rejimda ochiq kirish mumkin bo'lib, tadqiqotchilarga o'z loyihalari uchun osongina kirish mumkin bo'lgan ma'lumotlar bilan tanishish imkonini beradi. Masalan, Britaniya milliy korpusi (BNC), zamonaviy amerikacha inglizcha korpus (COCA) va Leyptsig korpuslari to'plami.

Tahlil va natijalar. Korpuslar, jumladan BNC korpusi ingliz tili o'rganuvchilari uchun dars jarayonlarida shug'ullanishda va ingliz tilidagi bilimlarini oshirishda birmuncha foyda keltiradigan amaliy dastur bo'la oladi. Chunki, korpus lingvistikasi metodologiyasi barcha darajadagi talabalar uchun qulay bo'lgan tizim bo'lib, unda matnlar ketma-ketligi pastdan yuqoriga tomon kichikdan kattaga tomon shakllantirib boriladi. Biroq, korpus resurslaridan unumli foydalanish uchun o'qituvchi korpusdan ma'lumot olish bilan bog'liq tartib-qoidalar bilan tanish bo'lishi va eng muhimi, bu ma'lumotlarni o'quvchiga sodda, tushunarli tarzda yetkaza olishi kerak.

BNC korpusi tadqiqot ishi olib borayotgan tilshunos olimlar uchun ham juda muhim manba bo'lib, onlayn tarzda foydalanish imkonini beruvchi prilojeniyalar yordamida tadqiqotchilar korpuslar ustida ilmiy tadqiqotlar olib borishlari mumkin. Bu jarayonda ma'lum bir so'zning korpus bazasida necha marotaba qo'llanilishi, qaysi so'zlardan oldin va keyin kelishi, til foydalanuvchilari tomonidan foydalanish chastotasi kabi statistik ma'lumotlarga ega bo'lishadi. Til o'rgatishda korpus materialidan foydalanishning turli usuli mavjud. Masalan, BNC bir guruh yapon tadqiqotchilari tomonidan ingliz tilini o'rganuvchilar uchun maxsus

maqsadlar uchun ingliz tilini o'rganish veb-saytini (ESP) yaratishda vosita sifatida ishlatilgan. [5] Veb-sayt ingliz tilini o'rganuvchilarga tez-tez eshitaladigan va qo'llaniladigan jumla namunalari yuklab olish va keyinchalik ingliz tilidagi muloqotlarda ushbu jumla namunalari asoslanish imkonini berdi. BNC tez-tez ishlatiladigan iboralar olingan manba bo'lib xizmat qildi. Tilni o'rganishni osonlashtiradigan bunday materiallarni yaratish, odatda, juda katta korpuslardan (BNC hajmi bilan taqqoslanadigan), shuningdek, ilg'or dasturiy ta'minot va texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bunday tilni materialni ishlab chiqish uchun katta miqdordagi pul, vaqt va hisoblash tilshunosligi sohasidagi amaliy tajriba sarflanadi. Til bilan bog'liq ma'lumotlardan tashqari, BNCda ensiklopedik ma'lumotlar ham mavjud bo'lib, bu ingliz tili o'rganuvchilariga Britaniya, uning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayoti hamda u haqidagi stereotiplarni o'rganish imkonini beradi.

BNC va COCA korpuslari bir-birini to'ldiradi, chunki ular Internetda erkin mavjud bo'lgan yagona va katta hajmga ega ingliz tili bazasidir. Korpus hajmi, janr qamrovi va ularning qanchalik dolzarbligi bo'yicha ikkita korpusni qisqacha taqqoslaydugan bo'lsak, zamonaviy Amerika ingliz tili korpusi (COCA - 560+ million so'z) Britaniya Milliy korpusidan (BNC- 100 million so'z) 5-6 baravar katta. Natijada, u ko'pincha BNCda mavjud bo'lmagan past chastotali so'zlar uchun ham ma'lumotlarni taqdim etadi. Aniq misollar nuqtai nazaridan, bu yerda ikkita hodisa turi e'tiborni tortadi: kollokatsiyalar va sintaksis. Sintaksisni o'rganish uchun 100 million so'z ko'pincha yetarli bo'lsa-da, ba'zi juda past chastotali hodisalar uchun 100 million so'z (BNC) va 560 million so'z (COCA) o'rtasida haqiqiy farq bor.

COCA 1990-yillarning boshidan buyon har yili 20 million so'zga ega (1990-yillarning boshidan beri jami 520 million so'zdan ortiq) va eng so'nggi matnlar 2017-yil dekabr oyiga to'g'ri keladi. BNC 1980-yillarning oxirida yaratilgan va chiqarilgan. 1990-yillarning boshlarida va 2014-yilda yangilanish bo'lgan. Bu ikki korpus zamonaviy ingliz tilini qanday ifodalashi nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Ehtimol, eng oson taqqoslash ingliz tiliga yaqinda kirgan yoki 20-25 yil oldin ko'proq ishlatiladigan so'zlar bilan bog'liq. BNC og'zaki janrlarda ancha keng doiraga ega, COCA esa televideniya va radio ko'rsatuvlarida yozilmagan suhbatlardan iborat. Ushbu suhbatlarning tabiiy og'zaki nutqni emas balki faqat hujjatlarda va rasmiy matnlarda aks etadigan so'zlarni o'z ichiga oladi. Masalan, gazeta-jurnallar yoki akademik-tibbiyot kabi sohalarga oid matnlarda bu so'zlarni uchratish mumkin. COCA va BNC bir-birini yaxshi to'ldiradi va ular faqat ingliz tilining hamma uchun ochiq va tushunarli bo'lgan katta ekelektron bazani tashkil qiladi. BNC norasmiy, kundalik suhbatni yaxshiroq qamrab oladi, COCA esa ancha kattaroq va yangiroq bo'lib, bu umumiy ma'lumotlarning miqdori va sifatiga muhim ta'sir ko'rsatadi.

Tilshunos olimlar Hoffman va Lehmann korpuslararo tadqiqotlar mobaynida BNC korpusidagi mexanizmlar, jumladan, yuqori va past chastotali so'zlarning statistikasini ko'rib chiqishdi. [9] Pearce (2008) ushbu korpusdagi erkaklar (man) va ayol (woman) so'zlarining ma'nosi, jamiyatdagi ijtimoiy o'rniga ko'ra foydalanish chastotasini ko'rib chiqdi va leksik xususiyatlari vakilligini o'rganib chiqdi. [11]

BNC yordamida turli lingvistik va tilga oid mavzularni qamrab olgan ko'plab ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib borildi. Tadqiqotning ba'zi umumiy yo'nalishlari:

1) Korpus tilshunosligi: Tadqiqotchilar turli kontekstlarda tildan foydalanish, so'zlarning chastotasi, birikmalar va grammatik naqshlarni tahlil qilish uchun BNCdan foydalanadilar;

2) Tilning o'zgarishi va yangilanishi: Tadqiqotlar vaqt o'tishi bilan tilning qanday rivojlanganligini, jumladan lug'at, grammatika va foydalanishdagi o'zgarishlarni o'rganishda BNC asos bo'lib xizmat qiladi;

3) BNC tildan foydalanishda katta va xilma-xil baza taqdim etish orqali lug'atlar, va boshqa leksik resurslarni yaratish va yangilash uchun ishlatiladi. Tilni o'rgatish va o'rganish: O'qituvchilar va tadqiqotchilar BNC dan tilning turli kontekstlarda qanday qo'llanilishini tushunish uchun foydalanadilar, bu esa til o'rgatuvchi materiallar va o'quv dasturlarini ishlab chiqishda yordam beradi.

4) Diskurs tahlili: BNC tilning muayyan kontekstlarda yoki janrlarda, masalan, akademik yozuvlarda, suhbatlarda yoki media matnlarida qanday ishlatilishini tekshirish uchun ishlatiladi.

Bular BNCdan foydalangan holda keng ko'lamli ilmiy izlanishlar va tadqiqotlarning bir nechta misollari.

Tilning elektron bazasini shakllantirish har bir tilning tilshunoslari oldiga qo'yilgan muhim vazifa ekan, korpus lingvistikasi kun sayin rivojlanadi. Sodda qilib aytganda, korpuslar tilshunoslikning istalgan sohasida tadqiqotlarni olib borishning sifatli va samarali bo'lishiga yordam beradi. COCA korpusi bilan taqqoslaganda so'zlar soni kam bo'lishiga qaramasdan, BNC korpusi ingliz tilining matnlar bazasini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Britaniya Milliy Korpusi yordamida ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. BNC dan foydalangan tadqiqot ishlariga bir nechta misollar:

1. Xunying Liu va Yuling Pan tomonidan "Tibbiy tadqiqot maqolalarida ingliz tili lug'atini korpus asosida o'rganish": Ushbu tadqiqot BNCdan tibbiy tadqiqot maqolalarida qo'llaniladigan lug'atlarni tahlil qilish uchun ishlatilib, ixtisoslashgan tibbiy atamalarning chastotasi va tarqalishiga e'tibor qaratdi.

2. Silvian Grenjer tomonidan "Ingliz tilini ilg'or o'rganuvchilar tomonidan qo'shma birikmalardan foydalanish": Ushbu tadqiqot ingliz tilini ilg'or o'rganuvchilar tomonidan qo'shma birikmalardan (so'z birikmalaridan) foydalanishni o'rganish va ulardan foydalanishni ona tilida so'zlashuvchilar bilan solishtirish uchun ishlatilgan.

3. Xiaojun Xu tomonidan "Ishbilarmon ingliz tilidagi metaforaning korpusga asoslangan tadqiqoti": Ushbu tadqiqot BNCdan biznes ingliz tilidagi metafora tilini o'rganish uchun foydalanilgan va metafora ushbu sohada ma'noni etkazish uchun qanday ishlatilishini o'rgangan.

4. Ingrid Mees va Florimond De Smedt tomonidan "Og'zaki ingliz tilida tildan foydalanishdagi gender farqlarining korpus asosidagi tadqiqoti": Ushbu tadqiqot BNCdan ingliz tilida so'zlashuv tilidagi tildan foydalanishdagi gender farqlarini o'rganish, so'z boyligi, grammatikasini tahlil qilish uchun foydalanilgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Britaniya Milliy Korpusi (BNC) o'qitish va ta'lim jarayonlarini takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi. Haqiqiy ingliz tilidagi matnlarning keng qamrovli va xilma-xil to'plamini taqdim etish orqali BNC til o'qituvchilari uchun qiziqarli va tegishli o'quv materiallarini yaratish uchun qimmatli resurslarni taklif etadi. Talabalar real hayotda foydalaniladigan materiallar orqali til ko'nikmalarini yaxshilashadi va lug'at, grammatika va nutq shakllarini tushunishlariga imkon beradi. Bundan tashqari, BNC o'qituvchilarga tadqiqot o'tkazish va o'quv amaliyotlarini xabardor qilish uchun til ma'lumotlarini tahlil qilish imkonini beradi. Umuman olganda, BNC tilni o'rganish va

o'qitishning umumiy samaradorligiga hissa qo'shib, til ta'limi sohasida ham o'qituvchilar, ham talabalar uchun qimmatli vosita bo'lib xizmat qiladi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Abdurakhmonova N, Urdishev K. "Corpus based teaching Uzbek as a foreign language". Journal of Foreign Language Teaching and Applied Linguistics.2019.
2. Ataboyev N, Ingliz tili korpusining funksional xususiyatlari(COCA misolida)-avtoreferat. Toshkent,2020.
3. Baxtiyor Mengliyev, Botir Elov, "Til korpusi -ta'lim samaradorligi va milliy ma'naviyatimiz ravnaqi". Til.gov.uz. 07.04.2021
4. Burnard, Lou, Aston, Guy (1998). The BNC handbook: exploring the British National Corpus. Edinburgh.
5. Chomsky N. Current issues in linguistic theory // J.A. Fodor and J.J. Katz. The Structure Of Language. Engelwood Cliffs, New Jersey: 1964.
6. Genri Kuchera and W. Nelson Fransis. "Computational Analysis of Present-Day American English".Providence, RI:Brown University Press. 1967.
7. Gries S.Th. Introduction to S. Gries and A. Stefanowitsch (eds.). Corpora in Cognitive Linguistics: Corpus-based Approaches to Syntax and Lexis. Berlin: Heidelberg, New York: Mouton de Gruyter, 2006.
8. Halliday M.A.Teubert W., Yallop C. and Cermakova A. Lexicology and Corpus Linguistics, – London, 2004.
9. Hoffman, Sebastian; Lehmann, Hans Martin(2000). "Collocational Evidence from the British National Corpus"
10. Hunston S. Corpora in Applied Linguistics: Cambridge University Press, 2002.
11. Pearce, Michael (Nov 2008). "Investigating the collocational behaviour of MAN and WOMAN in the BNC using Sketch Engine". Corpora.
12. Stefan Th. Gries Quantitative designs and statistical techniques/ English Corpus Linguistics edited by Douglas Biber and Randi Reppen. Cambridge, United Kingdom. 2015.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 7 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).